

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**



**MILLIY IQTISODIYOTNI ISLOH QILISH VA
BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI**

**mavzusidagi
IV respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2026-yil 7-may

Toshkent 2026

UO‘K: 30.322:339.72

KBK: 65.263

"Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirishning ilmiy asoslari" mavzusidagi IV respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi. - T.: “PUBLISHING HIGH FUTURE” OK nashriyoti, 2026. – 492 bet.

Ushbu to‘plam “Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirishning ilmiy asoslari ” mavzusida bo‘lib, unda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlashning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Xususan, to‘plam materiallarida milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning dolzarb iqtisodiy muammolari, milliy iqtisodiyotda moliya tizimi faoliyatining nazariyasi va amaliyoti, investitsiya siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish, shuningdek shahar va qishloq aholisi turmush darajasini tenglashtirish masalalariga oid tadqiqot ishlari hamda ilmiy qarashlar o‘z aksini topgan.

To‘plamga oliy o‘quv yurtlarida iqtisodiy muammolar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, tadqiqotchilar, vazirlik, qo‘mita va turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari, magistr va talabalarning ilmiy izlanishlari natijalari kiritilgan.

Shuningdek, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamidagi materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va keltirilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga muallifning o‘zlari mas‘uldirlar.

Mas‘ul muharrir: i.f.d., prof. S.K. Xudoyqulov

Tahrir hay‘ati:

i.f.d., prof. A.S. Usmanov

i.f.d., prof. B. H. Umurzakov

i.f.d., prof. F.I. Isayev

i.f.d., prof. A.M. Qodirov

Taqrizchilar:

DSc Sh.R. Xamdamov

PhD O‘.N. Abdulazizova

PhD S.R. Xolbayeva

Tashkiliy guruh a‘zolari:

M.S. Sultanova

M.M. Islomova

R.A. Xudaybergenova

© *“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ITM, 2026-yil*

©“PUBLISHING HIGH FUTURE” OK, 2026

ISBN: 978-9910-241-71-0

Назарова Г. Б.	Курилиш материаллари саноатида инвестицион фаолиятни бошқариш самарадорлигини баҳолаш усуллари (3 – г.назарова)	372
Нурматова С.Ш.	Оценка влияния инвестиционной политики на трансформацию потребительского поведения иностранных туристов (на примере узбекистана)	376
Olimov M. K.	Logistika infratuzilmasiga kiritiladigan investitsiyalar samaradorligini oshirish yo'llari	381
Saydullayeva D. K.	Экономическая эффективность инвестиций в премиальный туризм как фактор повышения привлекательности туристических направлений (на примере узбекистана)	385
Рахмонова Д. Х.	Инвестиционная привлекательность кашкадарьинской области и её эффективное влияние на региональную экономику	388
Salimova H. R.	"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasida Investitsiya siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish	391
Sobirjonova N. R.	Ishlab chiqarish korxonalarida investitsiya risklarini boshqarish mexanizmi: nazariya va amaliyot	395
Токсонов Х. Е.	Совершенствование инновационных механизмов управления жилищным строительством в целях повышения эффективности инвестиционной политики	399
Temirova Sh. Sh.	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularning samaradorligini oshirishda investitsiya muhitining ahamiyati	402
Hayitmurodova S. F.	O'zbekistonda investitsiya siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari	405
Tursunov Sh. A.	Реформирование системы подготовки кадров в целях обеспечения повышения качества высшего образования	408
Ahmedov S. X.	Toshkent shahrida anhor kanali bo'ylab osma kabinali jamoat transportni joriy etish	414
Xolbaeva C. P.	Hududlarning ekologik-innovatsiyalar asosida barqaror rivojlantirishning yevropa ittifoqi mamlakatlari tajribasi	418
Xamdamov Sh-J. R.	Qishloq xo'jaligida investitsiyalar samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari	421
Kamolidinov M. Sh.	Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budjet-soliq siyosatining ahamiyati	425
Xasanova N.N.	Investitsiya siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish	428
Yusupov K. B.	Raqamli aktivlar chiqarish orqali investitsiyalar jalb qilish va raqamli aktivlarni boshqarish	432
Yaxshimuratova X. X.	Inson kapitaliga investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy investitsiyalarning o'rnini va ahamiyati	435
Maxamatova M. A.		
Zokirov D. B.		
Zunnunova X. M.		
Zayniddinov A. Z.		

ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISH MEXANIZMI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Sobirjonova Nodira Rustamjon qizi,

Namangan davlat texnika universiteti, tayanch doktorant

Turan International University, “Biznes boshqaruvi” kafedrası o‘qituvchisi

Zamonaviy globallashuv sharoitida iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanishi, ayniqsa real sektor - ishlab chiqarish tarmog‘ining samaradorligi investitsiya faoliyatining hajmi va sifati bilan bevosita bog‘liqdir. O‘zbekistonda 2020–2024-yillar davomida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli o‘sdi: 2020-yilda 95,6 foizga tushgan o‘shir sur‘ati 2024-yilga kelib 127,6 foizga yetdi, yillik hajm esa 36 mlrd AQSh dollaridan oshdi. Biroq investitsiya hajmining o‘shishi sifat ko‘rsatkichlari bilan hamisha mos kelmaydi: ishlab chiqarish sektorida investitsiya loyihalarining katta qismi rejalashtirilgan daromad ko‘rsatkichlariga erisha olmayapti. Jahon amaliyotida global beqarorlik, kapital bozorlarining tebranishi va texnologik o‘zgarishlar investitsiya risklarining tizimli xarakter kasb etishini ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston sharoitida esa muammo yanada chuqurroq - mahalliy ishlab chiqarish korxonalari ERM (Enterprise Risk Management) asosidagi integratsiyalashgan boshqaruv modeliga to‘liq o‘tishni hali amalga oshirmagan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili quyidagi tadqiqot bo‘shliqlarini ko‘rsatdi:

1. ERM konsepsiyasi asosidagi integratsiyalashgan risk boshqaruv modeli O‘zbekiston ishlab chiqarish korxonalari uchun shakllanmagan;

2. Strategik risk menejment va operativ boshqaruv o‘rtasidagi integratsiya empirik tarzda asoslanmagan;

3. Risk baholash modellari va boshqaruv mexanizmlari o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarli darajada o‘rganilmagan.

Mavjud ta’riflarning solishtirma tahlili asosida quyidagi mualliflik ta’riflari taklif etiladi (1-jadval, 2-jadval).

1-jadval. Investitsiya tushunchasiga berilgan ta’riflarning solishtirma tahlili

Olim / Manba	Ta’rif mazmuni	Afzalligi	Cheklovi
Keynes J.M. [7]	Kapital ko‘paytirish xarajati	Moliyaviy mohiyatini ochib beradi	Ijtimoiy samara hisobga olinmagan
Markowitz H. [3]	Risk-daromad muvozanati	Aniq hisoblash imkonini beradi	Faqat moliyaviy aktivlarga mos

Sharpe W. [4]	Kapital joylashtirish qarori	Riskni tizimli ajratadi	Soddalashtirilgan model
Damodaran A. [5]	Qiymat yaratish vositasi	Strategik jihatni hisobga oladi	Amaliy o'lchash yetarli emas
O'zRQ, 1998 [1]	Boylklarni foyda yoki samara uchun kiritish	Milliy huquqiy asosga mos	ERM bilan integratsiya yo'q
Sh.Muxitdinov [8]	Risklarni boshqarish - zararlarni kamaytirish va foydani optimallashtirish jarayoni	Kompleks va tizimli yondashuv	Amaliyotda joriy etish murakkab
Mualliflik ta'rifi	Investitsiya — noaniqlik sharoitida daromad yoki ijtimoiy samara maqsadida kapitalni joylashtirish jarayoni; risk-rentabellik muvozanati va milliy sharoitga asoslanadi.ERM, ijtimoiy samara va milliy sharoitni birlashtiradi		

Manba: Muallif ishlanmasi.

Taqdim etilgan mualliflik ta'rifining o'ziga xosligi shundaki, mavjud ta'riflardan farqli ravishda u risk-rentabellik muvozanati va milliy iqtisodiy sharoit omillarini bir vaqtda inobatga oladi. Bu O'zbekiston ishlab chiqarish korxonalari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Risk - bu noaniqlik sharoitida qabul qilingan qarorlar natijasida kutilgan natijalardan og'ish ehtimoli bilan bog'liq iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Risk tushunchasiga berilgan ta'riflarning solishtirma tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Risk tushunchasiga berilgan ta'riflarning solishtirma tahlili

Olim	Ta'rif mazmuni	Afzalligi	Cheklovi
Knight F. [2]	Ehtimollik bilan baholanadigan noaniqlik	Risk mohiyatini chuqur ochib beradi	Amaliy o'lchash usuli ko'rsatilmagan
Markowitz H. [3]	Daromadlarning dispersiyasi	Aniq hisoblash imkonini beradi	Faqat moliyaviy aktivlarga mos
Sharpe W. [4]	Tizimli va tizimsiz risklarga bo'linish	Riskni tizimli ajratadi	Soddalashtirilgan model

Keynes J.M. [7]	Natijalarning oldindan aniqlanmasligi	Keng qamrovli	O‘lchash metodologiyasi ko‘rsatilmagan
Mualliflik ta’rifi	Risk — noaniqlik sharoitida iqtisodiy natijalarning og‘ish ehtimoli; zarar va qo‘shimcha foyda ehtimolini o‘z ichiga oluvchi boshqarilishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy kategoriya Ikki tomonlama (zarar + foyda) va boshqarilishi mumkin deb belgilaydi		

Manba: Muallif ishlanmasi.

Mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi - risk, menejment va investitsiya kategoriyalari kesishgan nuqtada ishlab chiqarish korxonalarida investitsiya risklarini boshqarishning integratsiyalashgan mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

Investitsiya riski shakllanish mexanizmi quyidagi rasmda ko‘rsatilgan (1-rasm).



1-rasm. Ishlab chiqarish korxonasida investitsiya riski shakllanish mexanizmi. Muallif ishlanmasi

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, investitsiya riski shakllanishida tashqi omillar va ichki omillar bir vaqtda ta’sir ko‘rsatadi. Riskni samarali boshqarish esa to‘g‘ri identifikatsiya, baholash va tegishli boshqaruv strategiyasini tanlashga bog‘liq.

Taklif etilayotgan mexanizm uchta asosiy blokdan tarkib topadi:

- Risk identifikatsiya va baholash bloki: moliyaviy, texnologik va bozor risklarini COSO ERM va ISO 31000:2018 standartlari asosida tizimli tasniflash [6];
- Strategik integratsiya bloki: risk menejmentini korxona investitsiya strategiyasi bilan uyg‘unlashtirish va risk-investitsiya matritsasi modeli orqali qarorlar qabul qilish;

- Monitoring va moslashuv bloki: doimiy monitoring asosida boshqaruv qarorlarini tezkor moslashtirish va samaradorlik ko'rsatkichlarini o'lchash.

Taklif etilayotgan model O'zbekiston milliy iqtisodiy sharoitiga yuqori kapital sig'imi, texnologik bog'liqlik va uzoq muddatli investitsiya sikli xususiyatlarini inobatga olib moslashtirilgan.

Amaliy tavsiya: O'zbekiston sanoat korxonalari investitsiya loyihalarini baholashda COSO ERM modeli asosidagi risk registrini joriy etishi va yillik mustaqil audit o'tkazishi tavsiya etiladi. Xorijiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, bunday tizim investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatsizligi ulushini 30-35 foizdan 12-15 foizga tushirish imkonini beradi. Navbatdagi tadqiqot bosqichi sifatida O'zbekiston ishlab chiqarish korxonalari ma'lumotlari asosida risk-investitsiya matritsasi modelining empirik sinovini o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 1998-yil 24-dekabr, № 718-I.-T.: Qonun hujjatlari milliy ma'lumotlar bazasi, 2024.
2. Knight F.H. Risk, Uncertainty and Profit. - Boston: Hart, Schaffner & Marx, 1921. - 381 p.
3. Markowitz H.M. Portfolio Selection. Journal of Finance.-1952.-Vol. 7.-№ 1.- P. 77-91.
4. Sharpe W.F. Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium under Conditions of Risk / Journal of Finance. - 1964. - Vol. 19. - № 3. - P. 425-442.
5. Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. - 3rd ed. - New York: John Wiley & Sons, 2012. - 992 p.
6. COSO. Enterprise Risk Management - Integrating with Strategy and Performance. - Durham: COSO / AICPA, 2017. - 118 p.
7. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. - London: Macmillan, 1936. - 472 p.
8. Muxitdinov Sh.Z. Ishlab chiqarish korxonalarida risklarni boshqarish metodologiyasining zamonaviy usullari . (2025). *Innovations in Science and Technologies*, 2(1), 182-188.